

FARG'ONA VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT

(2021-yil yanvar-dekabr, dastlabki ma'lumot)

Doimiy aholi soni. Farg'ona viloyatining doimiy aholisi soni 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 3 896,4 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 76,5 ming kishiga yoki 2,0 %ga o'sdi.

2022-yil 1-yanvar
holatiga ko'ra doimiy
aholi soni
3 896,4 ming
kishiga yetdi.



Tirik tug'ilganlar
soni 99,1 ming
kishi



2021-yil boshiga
nisbatan 76,5 ming
kishiga yoki
2,0 %ga o'sgan



O'lganlar soni
18,7 ming
kishi



Shahar aholisi
2 188,5 ming
kishi



Nikohlar soni
32,7 ming birlik




Qishloq aholi soni
1707,9 ming kishi



Ajrimlar soni
4,3 ming birlik




Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2022-yil 1-yanvar holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2022-yil 1-yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Farg'ona shahrida 299,2 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi (7,7 %) va Quva tumanida 266,0 ming kishini (6,8 %), aksincha eng kam aholi soni Quvasoy shahrida 96,9 ming kishi (2,5 %) va So'x tumanida 80,6 ming kishini (2,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2020-yilning mos davriga nisbatan Qo'shtepa tumanida 2,6 %ni va Dang'ara tumanida 2,5 %ni, Uchko'prik tumanida 2,5 %ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati, Qo'qon shahrida 1,2 % va Beshariq tumanida 1,7 %ni tashkil etdi.


Shahar qishloq aholisining jami aholiga nisbatan ulushi, %da




Hududlar kesimida shahar va qishloq aholisining taqsimlanishi
(2022-yil 1-yanvar holatiga, %da)



Erkaklar va ayollarning jami aholiga nisbatan ulushi, %da




Hududlar kesimida erkak va ayollarning jami aholiga nisbatan ulushi (2022-yil 1-yanvar holatiga, %da)



Tug'ilish. 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 99,1 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 25,7 promilleni tashkil etdi hamda 2020-yilning mos davriga nisbatan 1,1 promillega oshganligi kuzatildi (2020-yilning yanvar-dekabr oylarida 24,6 promille bo'lgan).

Hududlar kesimida tug'ilish koeffitsiyenti (2021-yil yanvar-dekabr 1000 aholiga nisbatan, promille)




Tug'ilish koeffitsiyenti

Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.


Farg'ona viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni (2021-yil yanvar-dekabr oylari bo'yicha, ming kishi)

2021-yil



Farg'ona viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni (yanvar-dekabr)

Yillar




Ming kishi

Vafot etganlar. 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 18,7 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,8 promilleni tashkil etdi.

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 63,9 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 5,5 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,9 foizi o'simtalardan, 6,2 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,1 foizi ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 1,3 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 11,1 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 572 nafarni tashkil etib, ularning 47,8 foizi perinatal davrda yuzaga kelgan holatlardan, 25,5 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 14,3 foizi tug'ma anomaliyalardan, 2,1 foizi ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,8 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,0 foizi yuqumli vaparazitar kasalliklardan va 3,5 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi



Tabiiy o'sish. 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 80,4 ming kishini tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 6,0 ming kishiga (2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 74,4 ming kishi bo'lgan) o'sgan.




Farg'ona viloyati bo'yicha vafot etganlar soni (ming kishi)
(yanvar-dekabr)
Yillar




Nikoh. 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 32,7 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,5 promilleni tashkil etdi.

Farg'ona viloyati bo'yicha nikohlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar-dekabr, ming)




Hududlar kesimida tuzilgan nikoh koeffitsiyenti (2021-yil yanvar-dekabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Nikohdan ajralishlar. 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 4,3 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,1 promilleni tashkil etdi.

Farg'ona viloyati bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida ma'lumot

(yanvar-dekabr, ming)



Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti (2021-yil yanvar-dekabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Aholi migratsiyasi

(2021-yil yanvar–dekabr, kishi)



Migratsiya. 2021-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 10857 kishini, ko'chib ketganlar soni esa 14868 kishini tashkil etdi.

Migratsiya saldosi minus 4011 kishi bo'lib, 2020-yilning o'tgan shu davrida minus 6522 kishi bo'lgan.

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida migratsiya saldosinging eng yuqori kamayishi darajasi Marg'ilon shahrida minus -1007 kishi va eng yuqori o'sish darajasi Farg'ona shahrida 1098 kishi qayt etildi.



**Demografiya va mehnat statistikasi
bo'limi. tel:(373) 249-87-32**